

Biz korrupsiyaga qarshimiz

2024 4 December

2024-yil 4-dekabr kuni, dunyo bo‘ylab har yili nishonlanadigan “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan, “Uzbekistan Airways” AJ konferenz-zalida tadbir tashkil etildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari hamda aviakompaniya xodimlari ishtirok etdilar.

“Uzbekistan Airways” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens xizmati boshlig‘i A. Abduvahobov va O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi vakili A.Majidov o‘z nutqida korrupsiyaga qarshi kurashishning mamlakat iqtisodiyotiga va jamiyatning barcha sohalariga ijobiy ta‘sirini ta’kidladilar. Shuningdek, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni har yili korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyatini yanada oshirish va jamiyatda shu yo‘nalishda ongli yondashuvni shakllantirish uchun muhim imkoniyat ekanligini eslatib o‘tdilar.

Tadbirda ishtirokchilar korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, shuningdek, xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlar haqida fikr almashdilar. Ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan tadbirda korrupsiyaning jamiyatdagi salbiy oqibatlari va unga qarshi kurashish bo‘yicha samarali strategiyalar muhokama qilindi.

Tadbirda, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan muvaffaqiyatlar va natijalar haqida ma‘ruzalar tinglandi. Tadbir ishtirokchilari, ayniqsa, yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi targ‘ibot ishlari olib borish, ularni bu salbiy hodisaning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlari haqida xabardor qilish zarurligini ta’kidlashdi. Mazkur uchrashuvning asosiy maqsadi ham aynan shu – korrupsiyaga qarshi kurashda barcha fuqarolarni, tashkilotlarni va davlat organlarini birgalikda faol ishtirok etishga undashdir.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tomonidan korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan barcha ishlar va loyihalar, shuningdek, bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar davom etadi.

Yig'ilishda yo'lovchilar yoki aviakompaniya xodimlari korrupsiyaga holatlariga duch kelishganida:

- Aviakompaniya korporativ sayti www.uzairways.com "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limida murojaatlarni qoldirish uchun tashkil etilgan maxsus seksiya orqali;
- anticorruption@uzairways.com elektron pochta orqali;
- Toshkent shahar, A. Temur shoh ko'chasi, 41-uy, "Uzbekistan Airways" AJ, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens xizmati orqali xabar berishlari mumkinligi ta'kidlab o'tildi.















